

## **Asrlarni munavvar aylagan daho**

Bugun 2018 - yil 9 - fevral kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti tomonidan she`riyat mulkining sultoni, insonparvarlik, o`zbek tilining rivojiga katta hissa qo`shtan buyuk bobomiz Mir Alisher Navoiy tavalludining 577 - yilligiga bag`ishlab "Asrlarni munavvar aylagan daho" mavzusidagi madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tadbir o`tkazildi.

Dastlab tadbir institut manaviy-ma'rifiy ishlar bo`yicha prorektori Shovozov Qodirjon Ochilovich tomonidan ochib berilgach buyuk bobomiz Alisher Navoiyni xotirlab tayyorlangan videorolik tomoshabinlarga namoyish etildi. Shundan so`ng buyuk bobomizning turli (ingliz, rus, nemis, fors-tojik va shuningdek o`zbekcha) tillarga tarjima qilingan g`azallaridan bir nechta faol iqtidorli talabalar tomonidan aytildi.

Keyin iqtidorli talaba qizimiz "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti 103-guruh talabasi Xabibullayeva Lobar tomonidan "Tanovar" kuyiga ajoyib bir raqs ijro etildi. Tadbirga yanada ko`tarinki kayfiyat olib kirish maqsadida Alisher Navoiy bobomiz g`azali asosida yaratilgan qo`shiq "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti 203-guruh talabasi Dadarboyev Muhriddin tomonidan kuylandi va unga hamohang ravishda klip sahnalashtirildi.

So`ngra bobomiz hayotini o`zida aks ettirgan sahna ko`rinishi tomoshabinlarga namoyish etildi. Shuning bilan tadbirni yakunlab berish uchun yana so`z institut manaviy-ma'rifiy ishlar bo`yicha prorektori Shovozov Qodirjon Ochilovichga berildi va tadbirda o`z faolligi va iqtidorini namoyish qila olgan "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti 301-guruh talabasi Abdurasulov Bobir, Vaydullayev Doston, 203-guruh talabasi Saidahmedov Jahongir va shu kabi bir necha talabalar Faxriy yorliq bilan taqdirlanishdi hamda tadbirni o`tkazishdagi yordami uchun institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotiga va tadbir tashkilotchilariga ham tashakkur bildirildi.



**"Iqtisodiyot va menejment" fakulteti dekani muovini Jamshid Turdiyev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**